

## **“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari to‘g‘risida**

### **MA’LUMOT**

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” (ro‘yxat raqami: 3383, 31.08.2022y.) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi.

Baholash natijasiga ko‘ra bankda 14 tasi maqbul (past), 5 tasi o‘rtacha va 1 ta – yuqori xavf-xatarlar deb belgilandi va tasdiqlandi.

Shuningdek, Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya

va lavozimlar ro‘yxati hamda 2023 yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar belgilangan va o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan.

Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati:

45 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past;

27 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi o‘rta;

31 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori deb baholandi.